

# • ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI • ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

## KITOB NURLI KELAJAK SARI YO'L

Rustamjonova Shaxlo Akmaljon qizi

Filallogiya tillarni o'qitish ingiliz tili 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10572686>

**Annotatsiya.** Kitob- insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, taffakur manbaidur. Kitobga bo'lgan muhabbat, uni qadrlash, o'qishga ishtiyoy qalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Insonning madaniyati uning kitobida aks etadi. Hamda bu maqola O'tkir Hoshimovning qalamiga mansub "Daftар hoshiyasidagi bitiklar" kitobi asosida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Kitob, marifat, yoqimli dushman, nafs, inson, orol, qit'a, insoniylik.

## BOOK THE ROAD TO A RADIANT FUTURE

**Abstract.** The book is the best friend and advisor of a person, where is the mind and the source of knowledge. The book is a weapon of thought, a key to treasures, a source of taffakur. Love for a book, appreciation for it, passion for reading are embedded in the blood and blood of our people. The culture of a person is reflected in his book. Also, this article is based on the book "scrolls in a notebook frame", which belongs to the pen of the sharp Hoshimov.

**Keywords:** book, description, cute enemy, Soul, Man, island, continent, humanity.

## КНИГА ДОРОГА В СВЕТЛОЕ БУДУЩЕЕ

**Аннотация.** Книга-лучший друг и советник человека, забота о разуме и источник знаний. Книга-орудие мышления, ключ к сокровищам, источник созерцания. Любовь к книге, ее оценка, страсть к чтению пронизывают кровь нашего народа. Культура человека отражена в его книге. Эта статья написана на основе книги "книги в рамке тетради", написанной острым Хашимовым.

**Ключевые слова:** книга, марифат, милый враг, похоть, человек, остров, континент, человечность.

Dunyoni faqat ilm bilan zabit etish mumkinligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Ilmni chuqur egallashning yo'li esa bitta-kitob o'qishdir. Bilamizki hozirgi kunda yoshlarni kitobxonlikka targ'ib qilish ya'ni yoshlar o'rtaida kitobxonlikni yo'lga qo'yish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shu tufayli biz yoshlarga, prezidentimiz tomonidan ko'plab imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Biz bu imkoniyatlardan oqilona foydalanishimiz kerak.

"Kitob-bilim manbai", deymiz. Bu isbot talab qilmas haqiqat. Zero, inson bilmini asosan kitob orqali oladi, uning tarbiyasi ham kitob yordamida shakillanadi. Yoshlarimiz badiiy

# • ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI •

## ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

adabiyotlarni o'qiganda, ularning dunyo qarashi kengayadi, hayotga bo'lган munosabati o'zgaradi. Ko'plab badiiy asarlar hamda yo'nalishimiz to'g'risida ko'plab ilmiy asarlarni mutolaa qilishimiz zarur. Zero, kitob -qalb chirog'i, tafakkur qanoti. Ayniqsa, kitobdan taraladigan va elektron nashrda topib bo'lmaydigan o'ziga xos yoqimli hidni tuyib, varoqlash asnosida mo'jizaviy sahifalarning sirli shitirlashidan ko'ngil cheksiz zavqqa to'lgan holda kitob mutolaa qilish, uning mazmuni haqida tengdoshlar bilan fikr almashishning huzur- halovati tamoman o'zgachadur.

Men ham shunday imkoniyatlardan foydalangan holda "Kitobdan olgan xulosam" mavzusida qisqacha va mazmunli o'qigan asarimni yoritib bermoqchiman.

Bu kitob O'tkir Hoshimov qalamiga mansub bo'lib "Daftar hoshiyasidagi bitiklar "deb nomlanadi. Avvalo bu kitob haqida aytishdan oldin yozuvchi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman. O'tkir Hoshimov o'z asarlari bilan dunyoga mashhur yozuvchi hisoblanadi desam mubolag'a bo'lmaydi. O'tkir Hoshimova yozgan asarlarini nafaqat yoshlar balki kattalar ham sevib mutolaa qilshadi, chunki yozuvchi o'zbekning o'ziga hos dunyo qarashlarini, urf-odatlarini, an'analarini samimiyatlarini o'z asarlarida tarannum etgan va shu orqali xalq e'tirofiga sazovor bo'lgan yozuvchidir. Shu qatori mening ham eng sevimli yozuvchim hisoblanadi. Endi esa asarga to'xtalsak bu asarning ichki sarlavhalariga juda xilma-xil hamda sermazmun bitiklardan iborat. Bu asar juda ham tarbiyaviy va hayotiy voqealar jamlanmasi desam adashmagan bo'laman. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asari umr davomida sayqal topib shu holatga kelganiga qadar insondan qanchadan-qancha bilim,sabr-toqat, tajriba juda katta ro'l o'ynaydi. Va yozuvchi o'zi aytganidek qishloqning qalbi shaharning aqli kerak bo'ladi deb.Bu asarni o'qir ekansiz hech qayerda tutilmaysiz, va yozuvchining topqirligiga tassano aytasiz. Endi esa yanada bu asarni yanada chuqurroq anglastingiz uchun eng yaxshi satrlaridan keltirib o'taman:

"Yoqimli dushman"

"Umrbod ortingdan ergashib yuradigan yoqimli dushman-nafs!" deb yozib o'tgan. Biz shuni tushundikki agarda inson o'z nafsin jilovlay olsa ko'p narsalarga erishish mumkin. Va bu satrlardagi ma'no va mohiyatni chuqur tushungan inson esa albatta bunga rioya. Dunyoda insonlar bir-birlariga o'xshamaganlaridek, ularning fikrlashlari dunyo qarshlari hatto nimani yaxshi-yu nimani yomon deb o'yashlarigacha farq qiladi. Demak shuni tushunish kerakki nafsiga ergashmay, uni tarbiyalagan inson yutuqqa,muvaffaqiyatga yetishadi. Unga faqat gumroh kimsalargina ergshadilar.

Bu asar haqida ham shoir o'zining qimmatli fikrlarini bayon etib o'tgan va shu xaqida ham qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

# • ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI •

## ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

“Bu kitobni yoza boshlaganimga qirq yildan oshdi. Bular mening kuzatuvlarim. O’ylarim. Bir qadar armonli, bir qadar istehzoli, bir qadar tabassumli xulosalarim...” deb yozib qoldirgan muallif. Biz tushunishimiz kerakki insonlar qachonki ko’p kitob o’qisa ko’p o’zini ustida ishlasa doimo yaxshi natijalarga erishib keladi. Yana bitta bu kitobning asosiy qismi diqqatimni tortgan edi shu haqida ham qisqacha sizlar bilan bo’lishmoqchiman va shuni ishonch bilan aytal olamanki bu satrlar eng mazmunli va chuqur mulohazali satrlardir:

“Orol va Qit’a”

“Insoniyat orol emas, qit’a bo’lib yashashni o’rgansa ko’p balolarning oldi olingan bo’lar edi.” Deb yozib o’tadi O’tkir Hoshimov. Avallo shuni aytish kerakki insoniy fazilatlar va go’zal xulqli insonlar doimo hayotda o’z o’rniga ega bo’ib kelmoqdalar. Bunaday qimmatli ma’noga ega bo’lgan asarlar hech qachon o’z qadr qimmatini yo’qotmaydi.

Men bu kitob haqida xulosalasam juda ko’p fikrlarim qarashlarim ko’p. Insonlarni ulug’lashga chaqiruvchi bunday o’lmas asarlar har bir davr uchun qimmatli bo’lib qolaveradi. Bu kitob hozirgi avlod ruhiyatida, qalbida ham hayajon uyg’ota oladi, ularningma’naviy boyishlariga tegishli hissa qo’sha oladi. Muhimi, ular faqat ma’rifiy bilimimizni oshirish bilan cheklanmay, badiiy didimiz takomiliga, ma’naviy kamolotiga xizmat qiladi. Zero mehr-muhabbat, insoniylik, odamlar o’rtasidagi samimiyat dunyoning ustuni deb qaralar ekan, menimcha O’tkir Hoshimov asarlarini o’qishga bo’lgan ehtiyoj oshaveradi.

### REFERENCES

1. O’tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asari.
2. Muxtasar Tojimatovaning “Kitob- hayotni yaratuvchi murabbiydir” haqida matni.
3. Bobur Hakimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asari badiiy-falsafiy xususiyatlari haqidasidan olingan ma’lumotlar.

MODERN SCIENCE  
& RESEARCH